



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

# **GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI**

**mavzusidagi VIII an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani  
MATERIALLARI**

**Toshkent  
2024-yil, 26-aprel**

## **UO‘K:378.147(575.1)**

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Matн] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2023. — 456 b.

Mazkur to’plamdan tilshunos va adabiyotshunos olimlar, metodistlar, akademik litsey hamda umumta’lim maktabi o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrant, talabalarning maqola va tezislari o‘rin olgan. To‘plamda global ta’lim va milliy metodika, ona tili va o‘zbek (davlat tili) tilini o‘qitish, adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar hamda til va adabiyot ta’limida innovatsion g‘oyalar kabi mavzular o‘z aksni topgan.

To‘plam ona tili, o‘zbek (davlat ) tili va adabiyoti ta’limi, uni o‘qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrant hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

### **To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

M.Abdullayeva, I.Ishonxonova, S.Inomjonova, F.Qulsaxatov, M.Elboyeva, M.Qosimova

### **Mas’ul muharrir**

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetova

### **Taqrizchilar:**

Pedagogika fanlari doktori, dotsent K.Maylonova  
Ped fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent S.Kambarova

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti “O‘zbek adabiyoti ta’limi” kafedrasi tomonidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusida 2024-yil 26-aprelda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

*To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy saviyasiga  
mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.*

## **UO‘K:378.147(575.1)**

Metodning yuqoridagi taklif qilingan tuzilishi ekspert foydasi uchun ishonchli dalil hisoblanadi. Gumanitar va aniq fanlar tarixida metodologiyaning taraqqiyot takomilida yuqorida tavsiflangan beshta aqliy harakatlarga mansub bosqichlarni bosib o'tgan.

Chunonchi, metodologiya rivojlanishining qadimgi yunon bosqichi spontan (o'z-o'zidan) dialektikasi tomonidan berilgan dunyoni aniqlanmagan yaxlit bosh rejaning ko'rib chiqilishi bilan bog'liq. Metafizika fani xususiy yondashuv metodlarini mutlaqlashtirdi. Keyingi davrda dunyo tuzilishi elementlarini ko'rib chiqishga olib keladigan operatsiyalar va ularning o'zaro ta'siridan tashqaridagi nati-jalar xususida gap borgan. Zamonaviy dialektik doira hodisalarini ko'rib chiqish, ularning ishslash mexanizmini o'rganish talqin etish muhim edi. Dialektikada hodisalar yaxlit ko'rinishiga qaytdi. Uning dinamikasi hisobga olingan holda konkretlilik va tafsilotlarni bilish bilan boyitildi. Metod tabiatini tizimliligi haqidagi bu umumi mulohazalarning barchasi badiiy asarning filologik ekspertizasi kabi o'ziga xos murakkab hodisaga obyekt uchun nisbatan o'ziga xoslik kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Романов А.О. Методология анализа художественного произведения. Часть 1. 24.09.2019.
2. Сухих С.И. Историческая поэтика А.Н.Веселовского. Из лекций по истории русского литературоведения. Нижний Новгород: Издательство «КиТиздат», 2001, 120 стр.

## BADIY ASARLARNI O'RGANISHDA LATERAL METODLAR

**Saodat Kambarova**

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU  
O'zbek adabiyoti ta'lifi kafedrasи dotsenti,  
ped. fan. fals. dok. (PhD)

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarни nostandard fikrlashga o'rgatish, ijodiy va tanqidiy tafakkuri ni o'stirishda lateral metodlardan foydalanish mazmuni yoritiladi. Bunda tasodify ta'sir, mental buzilishlar, "mantiqiy mikrofon", asar qahramoni nomidan "xayoliy xat yozish" kabi usullardan foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Lateral metod, kreativlik, tasodify ta'sir, mental buzilishlar, "mantiqiy mikrofon", "xayoliy xat".

**Annotation:** The article highlights the content of teaching readers to think non-standard, the use of lateral techniques in the cultivation of creative and critical thinking. It talks about the use of such methods as random influence, mental disorders, "logical microphone", "writing an imaginary letter" in the name of the hero of the work.

**Keywords:** Lateral method, creativity, coincidence effect, mental disorders, "logical microphone", "imaginary letter".

Ma'lumki, badiiy asarlardagi muammoli holatlar lateral-kreativ fikrlashni rivojlantiradigan metodlardan foydalanish zaruratinini yuzaga keltiradi. Adabiyotni o'quv fani va san'at turi sifatida o'qitish mazmunini takomillashtirish bo'yicha tajribalarimiz o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishda lateral fikrlash metodlaridan foydalanish, mantiqiy fikrlash orqali tadqiqiy muammo yechimi ni topishga individual yondashuvga zamin yaratadi. Lateral metod qo'llanilganda muammo yechimi boshqasi bilan almashtiriladi, ijodiy fikrlash jarayonida muammo bilan aloqasi bo'limgan so'z yoki tushunchani topish, so'zlarni taqqoslash, o'zgartirish o'quvchining ijodiy motivatsiyasini rivojlantiradi.

Lateral-kreativ metodlar o'quvchilarda shaxsiy nuqtayi nazarning o'zgarishiga, nostandard fikrlashga, yangi g'oyalarning tug'ilishiga ta'sir ko'rsatadi. Ular muammolar yechimiga muqobillarini topish, noodditiy g'oyalarni taqdim etish, bir xil fikrlash hududidan chetga chiqish, ma'lumotlarni qayta ish-lashning optimal yo'llarini izlashga doir to'ldiruvchi xususiyatga egaligi bilan an'anaviy metodlardan farqlanadi. Lateral metodlarning muhim xususiyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- 1) tanqidiy fikrlashga yo‘naltiradi;
- 2) muammoni kichik birliklarga bo‘lish va ularni qaytadan bir butun holga keltirishga o‘rgatadi (kubik-rubiklar kabi);
- 3) diqqatni o‘rganilayotgan obyektning ahamiyati pastroq jihatlariga qaratishni taqozo etadi;
- 4) yetakchi fikrlar va ustuvor qarashlar yo‘nalishini aniqlashga xizmat qiladi;
- 5) analogiya, muayyan vaziyatlarni boshqasiga ko‘chirishga yordamlashadi;
- 6) g‘oyalalar tugaganda, blokada yoxud vaziyatning oxirgi daqiqalarda qo‘l keladi va h.k.

Lateral metodlardan foydalanishning o‘ziga xosligi Q.T.Olimovning izlanishlarida yoshlarni bilim olishga qizqtirish [Olimov, 2013: 3–7], metodist R.Tillayeva tomonidan, asosan, ularning o‘quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rniga e’tibor qaratilgan [Tillayeva, 2023: 115–116]. Bizningcha, lateral fikrlashga doir bir qator metodlar muammoni yechishning oddiy yo‘lini boshqasiga o‘zgartirishga qaratilgani bilan ham xarakterlidir. Tasodify ta’sir, ijodiy pauza, mental buzilishlar kabi usullar ham g‘oyalarni topish metodlari sirasiga kiradi.

Tasodify ta’sir usuli orqali o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ko‘zda tutildi. Bunda muammo bilan umuman aloqasi bo‘lmagan so‘z yoki tushuncha topilishi; so‘zlar kombinatsiyasi (so‘z-muammo o‘zaro taqqoslanishi va bog‘lanishi) hosil qilish zarur sanaladi.

Mental buzilishlar – mantiqsiz va o‘rinsizdek tasavvur uyg‘otadigan vaziyatlarning sog‘lom fikrlash doirasini buzishidir. Bu esa jarayondagi o‘zgarishlar, yangi g‘oyalarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Mazzkur usul o‘quvchilar faoliyatiga ichki va tashqi motivatsiya beradi. Bunga misol sifatida S.Ahmadning “Ufq” trilogiyasidan olingan “Qochoq” parchasidagi ayrim lavhalarni tanlash mumkin.

Jannat xola “yagona farzandidan umid uzolmay, uning baxtini ko‘rolmay armon bilan chodirda jon bergen edi.

Erta azonda Nizomjon Tog‘aga xabar bergani Zirillamaga ot choptirib ketdi. Tushga qolmay Ikromjonning yor-birodarlari gruzovoyda tobut bilan yetib kelishdi. Cho‘l ufqi qizarib turgan kech paytida marhumaning jasadi solingan tobutni yelkaga olishdi. Nizomjon unga o‘g‘il bo‘lib, tobut oldiga tushdi.

Uning o‘z bolasi to‘qayda, qamishlar orasida marosimni kuzatib turardi. U kim vafot etganini bilmasdi. Dadasining tobut oldida bel bog‘lab yig‘lab ketayotganini ko‘rdi-yu, ko‘zları bejo bo‘lib ketdi. Axir, u kun bo‘yi onasini kutayotgan edi. Unga ovqat olib kelmoqchi edi. Nima bo‘ldi? Nahotki o‘lgan bo‘lsa? Endi uning holi nima kechadi? Endi unga kim ovqat olib keladi?” [Olim S., 2014: 84].

Asar qahramoni Tursunboyning qochoqlikda to‘qayda yashagan kunlari bilan bog‘liq yuqoridagi achinarli holatga oid ayrim fikrlarni o‘rtaga tashlash va vaziyatni qanday o‘zgartirish vazifasi orqali mental buzilishlar amalga oshiriladi. Asarning virtual ssenariysiga Vijdon obrazi kiritilib, Tursunboyga ta’sir o‘tkazish epizodi kiritiladi. Buning uchun qahramonning qanday yo‘l tutish zarurligi lavhalari kiritiladi: a) har qancha qiyin bo‘lmasin tobutni ko‘tarishga borish; b) o‘z ayblariga iqror bo‘lish; d) jazosini so‘rash; e) pushaymonlik va boshq.

Navbatdagi jarayonda qahramonga “mantiqiy mikrafon” tutiladi. Shu asosda ma’naviyati yoki ruhiyatidagi bo‘shliqlarni aniqlash, armonlarini eshitish mumkin bo‘ladi. Bu oldindan rejalashtiriladi va dasturlashtiriladi. Turli ta’sirlar sababli qoqilgan, hayotlari fojiali yakun topgan qahramonlar Abdullatif (O.Yoqubov. “Ulug‘bek xazinasi”), Homid (A.Qodiriy. “O’tkan kunlar”), Umar Zakunchi (O. Hoshimov. “Ikki eshik orasi”), Hojar (N.Eshonqul. “Urush odamlari”) kabi qahramonlarga “mantiqiy mikrofon”ni tutish orqali muammoning ildizlari aniqlanishiga zamin yaratiladi. “Mantiqiy mikrofon”ni kitobxonga ham uzatish mumkin. Ushbu usul qahramonlarning ichki dunyosiga baho berishda ularning xatti-harakatalari, tabiatidagi nuqsonlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillarga munosabat bildirishga yordam beradi.

Asar qahramoni nomidan xayoliy xat yozish. Ko‘p yillar davomida adabiy ta’lim amaliyotida qahramonlarga faqat bir yoqlama munosabat shakllangani sir emas. Masalaga faqat sujet chizig‘ida ularning murakkab vaziyatlarga tushib qolishi, muammolarga yechim topa olmay xatoga yo‘l qo‘yishi, “labyrinth”dan chiqib keta olmasligi natijada imkonsiz qolishi, natijada fojiali yakun topgan achchiq hayoti misolida yuzaki baho berilardi. Mustaqillik adabiy ta’lim tizimida ham yangilanishlarga yo‘l ochdi, sho‘ro tuzumi davridagi mafkuraviy qarashlarga barham berdi. Qahramonlar obraziga hayotiylik falsafasi asosida, tirik inson nuqtayi nazaridan yondashishga alohida e’tibor berilmoqda.

Bunda murakkab vaziyatlarga tushgan adabiy qahramonlar nomidan so'zlash, ularning nomidan kitobxonlarga maktub bitish yoki asardagi qaysidir epizodni tushirib qoldirish (uni o'quvchilar o'z tasavvurlaridagi kabi qayta yaratish) mumkin bo'ladi. Shu o'rinda virtual texnologiyalar imkoniyatlari – qahramonning virtual qiyofasini yaratish orqali ularning o'ziga xos olami, aytolmagan so'zlarini ifodalashga sharoit yaratiladi. Amalda qahramonar nomidan kuylangan qo'shiqlarning tinglovchilarga ta'siri kattaligi yaxshi ma'lum. Xususan, "O'tkan kunlar" romanidagi "Otabek qo'shig'i" yoki "Zaynab qo'shig'i" shular jumlasindandir. Qahramonlarning monologini shu yo'sinda yetkazish ta'sirchanlikka xizmat qilishi bilan ahamiytlidir.

Qahramonlarning monologini shu yo'sinda yetkazish ta'sirchanlikka xizmat qilishi bilan ahamiyotlidir. Zaynab nomidan qo'shiq:

Kulgu ketmay ko'zimdan

Yog'ar bo'ldi ko'zyoshim.

Ko'z-ko'z qilib baxtini

Yoqar bo'ldi kundoshim [Muhammad Yusuf, 2005: 187].

Xulosa qilganda, adabiyot darslarida lateral-kreativ yondashuvlarni qo'llash ta'lif subyektlari o'rta-sidagi interaktiv muoqotini mustahkamlaydi, mavzuga oid axborotlarni turli ko'rinishlarda olish imkoniyatini oshiradi, eng muhimi, ta'lif orqali estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мұхаммад Юсуф. Сайланма. Шеърлар. Достонлар. Шоир ҳақида хотирашар. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 187-б.

2. Олимов Қ.Т., Алиев А.А., Алиев А.Т. Узлуксиз таълим тизимида ёшларни билим әгаллашга қызықтириш масалалари // Uzluksiz ta'lif. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 3–7.

3. Olim S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiyo'rta ta'lif mifikalarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. Ikkinci qism. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 84-b.

4. Tillayeva R. Yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyasi. Ped. fan. fals. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent: 2023. – 115–116-b.

## TALABALARDA KREATIV TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**F.Egamberdiyeva**

Oriental universiteti dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi

**M.Usmonboyeva**

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi

**Annotatsiya:** Maqolada ko'plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o'rta-sidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o'rta-sida hech qanday bog'liqlik yo'q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog'liq ekanligi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijodkor shaxs, kasbiy tajriba, kasbiy yetuklik, kreativlik,

**Annotation:** The article states that many studies have different views on the relationship between intelligence and creativity. One group of researchers stated that there was no correlation between them, and representatives of the second group stated that the level of creativity and intelligence are related to each other.

**Key words:** creative personality, professional experience, professional maturity, creativity

<b>KIRISH.</b> Shuhrat Sirojiddinov. Global ta'lidan milliy maqsadlar sari	4
<b>Global ta'lif va milliy metodika</b>	
<b>Qozoqboy Yo'ldoshev.</b> Lirik asarlarni tahlil qilish yo'llari	5
<b>Shohidaxon Yusupova.</b> Matn bilan ishlashga psixolingvistik, kognitiv va funksional yondashish masalalari	7
<b>Roza Niyozmetova.</b> Adabiy ta'lida internet ma'lumotlaridan foydalanish	10
<b>Valijon Qodirov.</b> Oliy filologik ta'lida adabiyot fanlarini o'qitish borasida mulohazalar	14
<b>Mahkamoy Tursunova.</b> Sharqona o'qitish usullari – adabiyot mashg'ulotlarining yuksak samaradorligiga erishish vositasi sifatida	16
<b>Klaraxon Mavlonova.</b> Ona tili darslarida global fuqarolik ko'nikmasini shakllantirish	18
<b>Zavqiddin Suvonov.</b> Badiiy matnning filologik ekspertizasi metodologiyasi xususida	22
<b>Saodat Kambarova.</b> Badiiy asarlarni o'rganishda lateral metodlar	24
<b>F.Egamberdiyeva, M.Usmonboyeva.</b> Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalalari	26
<b>Xolida Tojiyeva.</b> Mumtoz adabiyot namunalari janr xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati	29
<b>Nursulu Nagmetova.</b> O'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda umumiy o'rta ta'lif maktablari va ijtimoiy institutlar hamkorligi	31
<b>Mahfuza To'ychiyeva.</b> Adabiy ta'lidi ijodiy fikrlashning xalqaro ahamiyati	33
<b>Maxsuda Sariboyeva, Mahfuza Tuychiyeva.</b> Yoshlar ongiga ma'naviy qadriyatlarni singdirishda innovatsion va kompetensiyaviy yondashuv	37
<b>Okila Turakulova.</b> O'quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	41
<b>Mohigul Fozilova.</b> Badiiy asar mazmunini o'qib idrok qilish	44
<b>Intizor Abdirimova.</b> Loyihalash faoliyatining tashkil etish bosqichlari	47
<b>Xilola Suyunova, Dilorom Suyarova.</b> Til ta'lida integratsiyaning globallashuvi	49
<b>Xolbibi Qurbanova.</b> Til ta'lida "ijodiylik" masalalari	52
<b>Barno Abdurahmonova, M. Abduqodirova.</b> "Vatanim" she'ri matni ustida ishlash orqali o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish	53
<b>Nurislom Xursanov.</b> Tilni o'qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari	57
<b>Aysara Najimova.</b> Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari	59
<b>Rustam Yo'ldoshev.</b> O'zbek tilida nomi noaniq, yetim qo'shimchalar o'z oilasini topsin!	61